O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION FAOLIYAT

Komilova Aziza Sunatullayevna,
Husenova Mohinabonu Qudrat qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil etish va uni olib borish qobiliyati, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, o`qituvchining innovatsion faoliyati xususida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bilim, ko`nikma, malaka, pedagog, pedagogik jarayon, pedagogik muhit, innovatsiya.

Bugungi kunda zamonoviy sharoitda pedagogik muhitni to`g`ri tashkil etish va uni olib borish qobiliyati orqali pedagogning mutaxasisligidan kelib chiqib, kasbiy tayyorgarligi, ya'ni pedagogik boy tajribaliligi, psixologik bilimlarga ega bo`lish, ta`lim tarbiya jarayonini tashkil etishda o`quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini xisobga olish, o‘quvchilarning bilim ko‘nikma va malakasini muvofiqlashtirish, ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashda yuksak mahorat egasi bo`lish muhim sanaladi. Darsni muvaffaqiyati va samarasi ko`p jihatdan pedagogik jarayonlarni ko‘rsatmalilik, uzviylik, uzluksizlik va ilmiylik asoslarida tashkil etishga bog`liq. Bu esa o‘quvchilarning berilayotgan ma'lumotlarni o‘zlashtirish jarayonida, yuqori samadorlikka erishish, bu bilan bir qatorda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Zamonaviy ta’limga xos muhim jihatlardan biri – o‘qituvchi faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda o‘qituvchi faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o‘rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, N.Gross, R.Karlson, R.Edem, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g‘oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo‘lish orqali o‘qituvchi faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan.

A.I.Prigojin, B.V.Sazonov va V.S.Tolstoylar o‘z tadqiqotlarida yangilik kiritishning tizimli konsepsiyani asoslashga uringan. Bu o‘rinda mualliflar innovatsion jarayonlarning quyidagi ikki muhim bosqichini bir-biridan ajratib ko‘rsatishadi:

1. Yangilik sifatida namoyon bo‘ladigan g‘oyalarni ishlab chiqish.
2. Yangilikni keng ko‘lamda ishlab chiqish.

Amerikalik psixolog E.Rodjers o‘z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo‘lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo‘lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o‘rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o‘rgangan. Ta’lim

tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

O‘qituvchilarning innovatsion faoliyatni tashkil etishga tayyorliklari bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Innovatsion faoliyat o‘qituvchining ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini, pedagogik qobiliyatlarni doimiy ravishda rivojlantirishni talab etadi.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo‘lishlari talab etiladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarining o‘zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. O‘qituvchilarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo‘lib, u bir necha bosqichda kechadi. Ya’ni:

1-bosqich. Tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi;

2-bosqich. Mavjud tizimga yangi g‘oyalarni, metodlarni kiritadi;

3-bosqich. Yangi g‘oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi;

4-bosqich. Pedagog o‘qitish va tarbiyalashga oid o‘z konsepsiyasi yoki metodikasini yaratadi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi uning yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi, pedagogik yangiliklarni qabul qilishi, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi, ijodkorligi bilan belgilanadi.

Hozirda interfaol ta’lim o‘qituvchining innovatsion faoliyati mohiyaini aks ettiribgina qolmay, shu bilan birga o‘qitishning innovatsion turi sifatida ta’lim samaradorligini oshiruvchi ta’lim sifatida alohida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo‘lga kiritishga imkon beradi, o‘qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko‘ra ta’lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a undovchi, bunyodkorlikka rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lib, ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. SHu sababli har bir o‘qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to‘la anglagan holda o‘z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur va muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sunatullaevna, K. A., & Axmedovich, R. O. (2022). Internet is a depression. The benefits and harms of cyberspace on the human psyche. *Eurasian Scientific Herald*, *5*, 69-73.

2. Комилова, А. С., & Равшанов, О. А. (2022). TALABALARDA O ‘ZIGA BO ‘LGAN ISHONCH VA PSIXOLOGIK MADANIYATNI OSHIRISH: Komilova Aziza Sunatullaevna, Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi katta o ‘qituvchisi Ravshanov Olim Axmedovich, Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (4), 267-270.

3. Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Психолого-педагогическая работа по организации самовоспитания подростков. *Молодой ученый*, (10), 1306-1308.

4. Комилова, А. (2021). Роль родителей в подготовке молодежи к семейной жизни. *Общество и инновации*, *2*(10/S), 437-441.

5. Жуманова, Н. Ш., Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Развитие инновационных систем в образовании. *Молодой ученый*, (4), 777-778.

6. Алимкулов, С. О. У., Мелибоев, А. Р., Комилова, А. С., & Туракулов, Л. Т. (2016). Решение разных проблем в образовании с помощью 3D-технологии. *Проблемы педагогики*, (12 (23)), 12-13.

7. Sunatullaevna, K. A. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 518-521.

8. Sunatullaevna, K. A., & Qudratovna, N. F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525.

9. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

10. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).

11. Komilova, A., Husenova, M., & Xidirova, M. (2023). O’SMIR YOSHIDAGI O’QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO’NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(1).

12. Aziza, K., & Xurshida, M. (2023). TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 419-422.

13. Aziza, K., & Mohinabonu, H. (2023). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 87-89.